



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-oktabr VII-15-116-7-96-K/25 Kattaqo‘rg‘on tumani

“Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonining 9-bandi hamda Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi va «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazining “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida O‘zaro kelishuviga asosan hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (M.Zavqiyev) va «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazi boshlig‘i (N.Jo‘rayev)ning “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida O‘zaro kelishuvi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan **920,0** (to‘qqiz yuz yigirma) **mln.so‘m mablag‘** ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tuman tashkilotlari (Rahbarlari)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga ajratilgan mablag‘larni ishlatilishini nazorat qilish yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga tuman mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek tuman G‘aznachilik

bo‘linmasi (N.Vasiyev)ga mablag‘larni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda budjet mablag‘larining to‘g‘ri va maqsadli xarajatga chiqarilishini ta’minlash bo‘yicha shaxsiy javobgarlik mas’uliyati yuklatilsin.

5. Mazkur Qaror ijrosi xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Zavqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining
2025-yil 28-oktabrdagi
VII-15-116-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**“Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg'armasi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida
MA'LUMOT**

T/r	Tashkilot nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Mablag' miqdori (mln. so'm)	Asos
		Jami:	920,0	(To'qqiz yuz yigirma million)
1	Tuman hokimligiga	Tumandagi mahallalarda faoliyat olib borayotgan ijtimoiy xodimlarga kompyuter jamlanmasi sotib olish uchun	190,0	tuman hokimi birinchi o'rinbosari M.Zavqiyevning 2025-yil 21 oktabrdagi 02-02/1465-sonli xati
2		Tuman markazidagi ko'chalarda 20 dona tungi yoritish chiroqlari sotib olish uchun	180,0	
3		4-K-551 avtomobil yo'l chetini 600 metr qismiga asfalt qilishda 220 tonna asfalt mahsuloti sotib olish uchun	130,0	
4		M.Ulug'bek mahallasi A.Navoiy ko'chasidagi elektr tarmog'ini yer osti tarmog'iga o'zgartirish uchun kabel sotib olishga	420,0	